


77. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning burchaklari xossalari

Yondosh mavzu:
kitob grafikasi


To'g'ri to'rtburchak, kvadrat,
teng burchaklar.




Ortiqcha
shaklni
toping



1. Teng shakllarni toping. Buni siz qanday bildingiz?



2. Qog'oz varag'iga tomonlari 14 cm va 6 cm bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizing. Uni qog'ozdan qirqib oling va teng ikkiga buklang. Burchaklari ustma-ust tushdimi? Burchaklarning tengligi haqida qanday xulosa qilishingiz mumkin?



Birining ustiga ikkinchisini qo'yganda ular to'liq ustma-ust tushsa: bir burchakning uchi ikkinchi burchakning uchiga, bir burchakning tomoni ikkinchi burchakning tomoniga ustma-ust tushsa, burchaklar teng deb ataladi.



To'g'ri to'rtburchak va kvadratning barcha burchaklari teng.

3. To'g'ri to'rtburchak yasang. Uning burchaklarini goniya yordamida tekshiring. Bu burchaklarning hammasi tengmi?

77. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning burchaklari xossalari



4. Rassom kitob uchun rangli supermuqova qilishi kerak. U qanday o'lchamdagi qog'oz tayyorlab qo'yishi kerak?



klapanning kengligidan
17 cm 5 mm katta

klapanning kengligidan
2 cm 3 mm kichik



5. Misollarni hisoblang, ularning qiymatlarini o'sish tartibida joylashtiring va kitobda matnning boshini yoki oxirini ajratib turuvchi naqsh qanday atalishini bilib oling.

A $752 + 197$

V $913 - 868$

Y $134 + 378$

K $354 + 499$

I $871 - 479$

N $970 - 565$

E $604 - 108$

T $267 + 376$



6. Amallar tatibini ko'rsating va ifodalar qiymatini toping.

$780 - (350 - 198) + 217$

$658 - 497 + (331 + 109)$



7. Amallarning noma'lum komponentini topish qoidasini yodga oling. Tushirib qoldirilgan qiymatlarni shunday tanlangki, natijada tengliklar to'g'ri bo'lsin.

$43 \text{ dm } 8 \text{ cm} + \square = 8 \text{ m } 2 \text{ dm } 1 \text{ cm}$

$8 \text{ m } 73 \text{ cm} - \square = 2 \text{ m } 8 \text{ cm}$



8. Ertaklar kitobiga 23 ta katta bezak, katta bezaklardan 37 ta ko'p kichik bezak ishlangan. Bu kitobning rassomi hammasi bo'lib nechta bezak ishlangan?



9. Ifodalarning qiymatini toping.

$(643 - 256) + (843 - 458)$

$(900 - 736) + (128 + 99)$